

**INKLYUZIV TA'LIMDAGI BOLALARGA TIL DARSLARINI  
O'QITISH METODLARI**

**Odinaxon Olimova<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup> Namangan davlat pedagogika instituti O'zbek tili va*

*adabiyoti yo'naliши 2-bosqich talabasi*

*E-mail: [olimovaodina0520@gmail.com](mailto:olimovaodina0520@gmail.com)*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 04.07.2025*

*Revised: 05.07.2025*

*Accepted: 06.07.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**

*inklyuziv ta'lim,  
metodika, emotsiyonal  
intellekt, "qisqa  
hikoya+rasm" metodi,  
texnologiyalardan  
foydalanish,  
moslashuvchanlik,  
differensial ta'lim  
yondashuvi.*

*Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim doirasida alohida ehtiyojli o'quvchilarga til darslarini o'rgatishda samarali metodik yondashuvlar, innovatsion vositalar va o'qituvchining individual strategiyalari yoritilgan. Shuningdek, ta'limning insonparvarlik tamoyillari, texnologik yutuqlardan foydalanish, o'qituvchi, oila va jamiyat o'rtaсидаги hamkorlik masalalari tahlil etilgan.*

**KIRISH.** Bugungi kunda har bir bolaga sifatli ta'lim berish masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va barqaror ijtimoiy muhit yaratish ta'limning barcha qatlamlariga chuqur e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida insonparvarlik, ijtimoiy tenglik va har bir bola uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash g'oyalari kuchayib bormoqda. Bu esa ta'limda yangi yondashuvlar, xususan, **inklyuziv ta'lim tizimini** keng joriy etishni talab qilmoqda.

Inklyuziv ta'lim — bu alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni umumiy o'quv muhitiga to'laqonli jalb qilish, ularning o'z tengdoshlari bilan teng asosda ta'lim olishlarini

ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy yondashuvdir. Ushbu tizim o'z navbatida o'qituvchilardan yangicha metodik fikrlashni, individual yondashuvni va yuqori darajadagi kasbiy mahoratni talab qiladi. O'zbekistonda ham ushbu yondashuvga nisbatan e'tibor ortib borayotgan bo'lib, 2020–2025 yillarga mo'ljallangan "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi" bu boradagi islohotlarning asosiy huquqiy negizini tashkil etmoqda.

Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ehtiyojli bolalarga **til o'rgatish** esa alohida e'tibor va noan'anaviy metodik yondashuvlarni talab etadi. Til — nafaqat aloqa vositasi, balki shaxsnинг jamiyat bilan integratsiyalashuvi, madaniy identifikatsiyasi va emotsiyonal rivojlanishining ham asosiy omilidir. Shu sababli, bu yo'nalişda o'quvchilarning qobiliyatlariga va ehtiyojlariga mos pedagogik metodlar, vizual vositalar, interaktiv o'yinlar va differensial yondashuvlar muhim rol o'ynaydi.

Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim doirasida til darslarini o'qitish metodikasi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning til o'rganish jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va o'zini erkin ifoda etishiga xizmat qiluvchi innovatsion usullar ko'rib chiqiladi. Bu orqali har bir bola uchun ochiq, mehrga asoslangan, individual yondashuvga ega ta'lim muhiti yaratish imkoniyatlari yoritiladi.

**O'zbekistonda inklyuziv ta'lim.** So'nggi yillarda dunyo ta'lim tizimida inklyuzivlik tamoyillariga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu o'zgarishlar O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi PQ-4860son qarori bilan tasdiqlangan "2020-2025- yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi" da alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha bir qancha vazifalar belgilandi. Ushbu qarorga binoan 2025yilgacha belgilangan vazifalar bajarilib kelinmoqda.

Inklyuziv ta'limdagi bolalarga til darslarini o'qitish metodikalari - bu nafaqat pedagogik yondashuvlar majmuasi, balki mehr, sabr va individual yondashuvning uyg'unligidir. Til - bu muloqot vositasi bo'lishdan oldin, inson qalbining, fikrlarining va orzularining ko'zgusi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun tilni o'rganish - bu atrof-muhit bilan aloqaga kirishish, o'zini jamiyatda his qilish yo'lidir. Til faqat aloqa vositasi emas, balki milliy madaniyatni o'rgatish quroli hamdir. Darslarda o'zbek xalq ertaklari, maqollar, she'rlar asosida til o'rgatish bolaning o'z ildiziga bog'lanishini ta'minlaydi.

Menimcha, o'qituvchi birinchi navbatda tinglovchi bo'lishi kerak. Bolaning til o'rganishga bo'lgan har qanday ishtiyocoq - e'tiborli qulqoq va sabrli yurak orqali ochiladi.

Metodik yondashuvlar qat'iy emas, balki moslashuvchan bo'lishi kerak. Har bir bola - bu alohida dunyo. Shuning uchun ularning ehtiyojlariga qarab darslar moslashtirilsa, til o'rganish yanada samarali kechadi.

Ko'ngil bilan berilgan dars ko'proq natija beradi. Qancha zamonaviy texnologiyalar bo'lmasin, o'qituvchining mehr bilan qilgan harakati o'quvchida tilga mehr uyg'otadi.

Yana shuni ham aytardimki, til - bu shunchaki grammatik qoidalar yig'indisi emas, balki bolaga dunyoni anglash, o'zini anglash, tushunish va tushuntirish vositasidir. Inklyuziv talimda bu imkoniyatni yaratish jamiyat oldidagi eng katta vazifalardan biridir.

Inklyuziv ta'limda har bir o'quvchining ehtiyojini inobatga olish muhimdir. Differensial ta'lim yondashuvi orqali bolalarning qobiliyatlari, o'rganish uslublari va rivojlanish darajalari hisobga olinadi. Agar o'qituvchi sinflarda til darsini o'tsa, o'quvchilarga bir xil darajadagi savollarni bersa, ularni qiziqishlaridan, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda mashq bajartirma inkyuziv ta'limdagi bolada ham, sog'lom bolada ham o'zlashtirish past bo'ladi. Shuning uchun bolalarning har biriga alohida e'tibor berib, qiziqishlarini inobatga olgan holda dars olib borish muhim. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarga mavzularni tushuntirish uchun o'yinlar, turli xil rangli, rasmli yoki shaklli ko'rgazmalar, rangli kartochkalardan, audio-hikoya, video-sahna, rangli jadval va sxemalardan foydalangan ma'qul. Sababi bu orqali o'quvchilarda motivatsiya oshib, tinglab tushunish, mustaqil o'rganish ko'nikmalari, ijtimoiy integratsiya kabi bir qancha sifatlar paydo bo'ladi va rivojlana boshlaydi, natijada bola o'zini to'laqonli his qiladi va faollahshadi.

"Qisqa hikoya +rasm" : ushbu metoddha har bir mavzu qisqa, oddiy matn bilan boshlanadi. Har bir matnga tegishli rasmlar, piktogrammalar ishlataladi. Bunda o'quvchi nafaqat o'qiydi, balki tasavvur qiladi va tushunchalarni bog'laydi. Bu, ayniqsa, autizm spektridagi bolalar uchun juda samarali.

O'qituvchi o'quvchining harakatlarini kuzatib borishi, bolalardagi kuchli tomonlarni topib, rag'batlantirishi, emotsiyal qo'llab-quvvatlashi: ya'ni bolani tinglashi, histuyg'ulariga javob qaytarishi, hurmat bilan yondashishi kerak. Pedagog ota-onalar, mакtab psixologlari bilan doimiy aloqada bo'lib, bolani darslarga moslashtirishi va ta'limda mehrli muhitni yaratishi lozim.

Inklyuziv ta'limda til darslarini o'qitishda yuqorida keltirilgan metodik yondashuvlar va innovatsion usullarni qo'llash orqali barcha o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratish mumkin. Bu esa o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashga va umumiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas bo‘lagiga aylanmoqda. Har bir bolaning, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning sifatlari ta’lim olish huquqini ta’minlash orqali jamiyatda tenglik va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlanadi. Til darslarini o‘qitishda esa bu yondashuv yanada chuqurroq individual metodikani, emotsiyal yondashuvni, sabr va pedagogik mahoratni talab etadi. O‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va rivojlanish darajasidan kelib chiqib tuzilgan mashg‘ulotlar nafaqat ularning til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, balki ularni ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashiga ham xizmat qiladi. Interaktiv, vizual, audiovizual vositalar, o‘yinli metodlar va “qisqa matn + rasm” uslublari orqali bolalarning fikrlashi, eslab qolishi, tushunishi va muloqotga kirishish malakalari rivojlanadi. Shuningdek, o‘qituvchining ota-onalar, maktab psixologgi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashi, har bir bola uchun mehrli, xavfsiz va samarali o‘quv muhitini yaratishga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limda til darslarini o‘qitish — bu oddiy bilim berish emas, balki har bir bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy jarayondir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son qarori, 2020-yil 13-avgust. “Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”.
2. “2020–2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi”. — Toshkent, 2020.
3. UNESCO. (2020). *Inclusive Education: From Policy to Practice*. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
4. Booth, T. & Ainscow, M. (2002). *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools*. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education.
5. Назарова, З.Ш. (2021). *Инклюзивное образование: теория и практика*. — Ташкент: “Фан”.
6. Rasulov, A. (2022). *Til o‘rganish metodikasi va psixologik yondashuvlar*. — Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
7. Xodjayev, S. (2021). *Maxsus pedagogika asoslari*. — Toshkent: “Ilm ziyo”.